

SOLIQ ISLOHOTLARINING BYUDJET DAROMADLARI BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Ilmiy rahbar: Baxromov Azizbek Alisher o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

“Menejment” kafedrası assistenti,

Rustamov Xurshidbek Marufjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo'nalishi 4-kurs talabasi

Email: xurshidbekrustamov0411@gmail.com

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda samarali soliq siyosatini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq tizimi davlat byudjeti daromadlarini shakllantiruvchi asosiy manbalardan biri bo'lib, iqtisodiyotni tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli soliq tizimini takomillashtirish va uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Soliq siyosatini shakllantirish moliya va iqtisodiy munosabatlarning o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadi. Davlat ushbu siyosat orqali mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish, rivojlantirish va uni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Soliqlar pul munosabatlarining muhim qismi sifatida iqtisodiy tizimning ajralmas elementi bo'lganligi sababli, soliq siyosati ham iqtisodiy siyosatning tarkibiy bo'g'ini hisoblanadi.

Soliq tizimi deganda mohiyatan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va markazlashgan byudjet fondiga yo'naltiriladigan turli xil soliqlar majmuasi tushuniladi. Bu tizim soliqlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Soliq tizimi odatda uch asosiy guruhga ajratiladi: aylanmadan, daromaddan va mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.[1] Aylanmadan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq hamda bojxona bojlari kiradi. Daromaddan olinadigan soliqlar tarkibiga foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad solig'i kiradi. Mulkdan olinadigan soliqlarga esa mol-mulk solig'i va yer soliqlari kiradi. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra soliqlar to'g'ri va egri turlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlar bevosita daromad yoki mol-mulk egasidan undiriladi, bunda soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi bir shaxs hisoblanadi. Ular odatda aniq belgilangan manbaga ega bo'lib, korxona yoki tashkilotlarning xo'jalik faoliyatidan olingan foydaga asoslanadi. Aholi uchun esa to'g'ridan-to'g'ri daromad manbai hisoblanadi. Foyda solig'i, daromad solig'i va yer solig'i to'g'ri soliqlarning asosiy turlaridir.

Egri soliqlar esa korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalariga bevosita bog'liq bo'lmaydi. Ular tovar va xizmatlar narxiga qo'shimcha tarzda qo'shib,

iste'molchilar tomonidan to'lanadi. Shu bois bunday soliqlar "iste'mol soliqlari" deb ham yuritiladi. Egri soliqlar narxning oshishiga, natijada iste'mol hajmining kamayishiga olib keladi. Ularning asosiy turlariga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona bojlari kiradi. Soliq solish tizimi bir qator asosiy elementlardan iborat bo'lib, ularga soliq subyekti, obyekti, manbasi, soliq stavkasi, soliq birligi, soliq imtiyozlari va boshqa jihatlar kiradi. Nazariy jihatdan "soliq tizimi" va "soliq solish tizimi" tushunchalarini farqlash zarur. Soliq tizimi — bu amaldagi soliqlarning yig'indisi bo'lsa, soliq solish tizimi — ularni amalda undirishning tashkiliy shakllari, mexanizmlari va usullarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilangan va ijro organlari tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish prinsiplari hamda mexanizmlar majmuasiga aytiladi. Mazkur tizim jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy elementi sifatida qaraladi.[2]

Yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida soliq siyosatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2023-yil 11-sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan PF-158-sonli farmon – "O'zbekiston – 2030" strategiyasi – soliq tizimini yanada isloh qilish, shaffoflikni oshirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir. Mazkur strategiyaning 46- va 56-maqсадlari aynan soliq siyosatini takomillashtirish, raqamlashtirish va soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish masalalarini qamrab oladi.[3]

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, yaqin yillarda mamlakatimiz soliq tizimi tubdan o'zgaradi. Bu o'zgarishlar natijasida soliqlarni hisoblash va undirish jarayonlari yanada shaffof, sodda va samarali bo'lib, u davlat byudjeti shakllanishi hamda soliq to'lovchilarning manfaatlariga mos ravishda yo'lga qo'yiladi.

1-jadval.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida soliq tizimini rivojlantirishga oid yo'nalishlar[4]

Maqsad raqami	Asosiy yo'nalishlar
46-maqsad	Soliq siyosatini takomillashtirish, soddalashtirilgan soliq tizimini joriy etish, soliq to'lovchilar uchun qulay muhit yaratish.
56-maqsad	Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, soliq ma'muriyatchiligida raqamlashtirishni keng joriy etish, davlat byudjeti daromadlarini barqarorlashtirish.

2023-yil 1-apreldan boshlab ayrim soliq imtiyozlarini berish tartibi o'zgartirildi. Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha avval amal qilib kelgan imtiyozlar bekor qilindi:

1. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash bo'yicha geologiya xizmatlari uchun aylanma solig'i.

2. Pochta markalari, markali otkritkalar va konvertlar realizatsiyasi bo'yicha aylanma.

3. Byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlar bo'yicha aylanma.

Shuningdek, 2023-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Milliy gvardiyasi qo'riqlash bo'linmalari xizmatlariga taalluqli soliq imtiyozlari ham bekor qilindi. Shu bilan birga, Prezident yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ayrim davlat organlari qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) to'lovchilari sifatida qayd etila boshlandi. Ushbu choralar soliqdan bo'yin tovlash holatlariga qarshi kurashish va yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada davlat byudjeti daromadlari barqaror o'sishga erishdi.

Amaldagi soliq stavkalari (2023-yil holatiga ko'ra):[5]

Soliq turi	Amaldagi stavka
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)	12%
Jismoniy shaxslar daromad solig'i	12%
Yuridik shaxslar foyda solig'i	15–25%
Mol-mulk solig'i	1,5%
Qishloq xo'jaligi yer solig'i	0,95%
Byudjet tashkilotlarining ijtimoiy solig'i	25%

2-jadval.

2021–2023-yillar davomida soliq tushumlari dinamikasi (mlrd so'mda)

(Manba: www.soliq.uz asosiy ko'rsatkichlar)[6]

Soliq turlari	2021-yil 31-mart holatiga	2022-yil 31-mart holatiga	2023-yil 31-mart holatiga
Byudjetga jami tushumlar	29 344	34 500	37 877
Qo'shilgan qiymat solig'i	5 963	7 591	8 399
Aksiz solig'i	3 065	3 361	3 355
Yuridik shaxslar foyda solig'i	8 478	9 281	9 521
Jismoniy shaxslar daromad solig'i	4 001	5 236	6 622
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	191	179	206
Mol-mulk solig'i	652	943	1 316
Yer solig'i	822	1 114	1 425
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	3 761	3 596	3 544

Aylanmadan olinadigan soliq	–	622	556
Davlat boji va jarimalar	650	888	1 041
Boshqa tushumlar va yig'imlar	1 762	2 310	1 891

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2021–2023-yillar oralig'ida mamlakat byudjetiga tushgan soliqlar hajmi sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, QQS, foyda va daromad soliqlari bo'yicha o'sish sur'atlari yuqori bo'lib, bu soliq siyosatini soddalashtirish va stavkalarni pasaytirish natijasida soliq to'lovchilar sonining ortganini ko'rsatadi.

Soliq siyosatini shaffof, oqilona va zamonaviy asoslarda takomillashtirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. Yaxshi tashkil etilgan soliq tizimi orqali hukumat ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma sohalarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday investitsiyalar O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini tezlashtirish va jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat byudjeti daromadlari asosan soliqlarning barqaror tushumiga tayanadi. Shu sababli, soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish, soliqlarni raqamlashtirish va elektron tizimlarga to'liq o'tish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq siyosatining zamonaviylashtirilishi nafaqat byudjetni mustahkamlash, balki fuqarolar farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu boisdan, O'zbekistonda soliq tizimini takomillashtirish, soliq yig'imlarini ko'paytirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash borasidagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda.[7]

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalarida soliqlarni to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida byudjetga to'lash nafaqat davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda, balki korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlar korxona iqtisodiy faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, ularning to'g'ri yuritilishi ishlab chiqarish jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda O'zbekistonda soliq siyosatini soddalashtirish, soliq stavkalarini maqbullashtirish hamda soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar ishlab chiqarish korxonalari uchun qulay sharoit yaratmoqda. Buning natijasida soliq to'lov intizomi oshib, yashirin iqtisodiyot ulushi kamaymoqda. Shu bois, ishlab chiqarish korxonalarida soliq hisobini yuritishning zamonaviy usullarini joriy etish, elektron hisob-kitob tizimlaridan foydalanish va soliq organlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish byudjetga tushumlarni ko'paytirish hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi PF–5468-son Farmoni “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida”.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy veb-sayti – <https://www.soliq.uz>.
5. Qodirov A., Jo'rayev S. Soliq tizimi va soliq siyosati. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
6. “O'zbekistonda soliq tizimini rivojlantirishning istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: TSUE, 2021.
7. Karimov B., Xolmurodova M. Davlat byudjeti va soliqlar tahlili. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020.